



DAVLAT TILI TO'G'RISIDAGI QONUN VA UNING IJROSI

Abduhakimova Nigora Jamshid qizi

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Xorijiy til va gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 101-guruh talabasi

Annotatsiya: Respublikamiz ijtimoiy hayoti va xalq xo'jaligining barcha sohalarida davlat tilida jahon o'lchovlariga mos tarzda ish yurita olish, milliy-ma'naviy qadriyatlarini puxta egallash, o'z fikrini yozma shaklda to'g'ri ifodalay bilish kabi talablar barkamol mutaxassislar tayyorlashning muhim shartidir. Shu maqsadda amaldagi o'quv dasturi asosida akademik litsey talabalari uchun ilk marotaba «Davlat tilida ish yuritish» darsligi yaratildi. O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi qonuni o'zbek tilining siyosiy-ijtimoiy maqomini ta'minladi va uning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Xususan, ushbu qonunning 8, 9, 10 - moddalarida hujjatlarning davlat tilida tayyorlanishi, boshqaruv organlari, muassasa, korxonalar va tashkilotlarda ish davlat tilida yuritilishi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Davlat tili, davlat organlari, tashkilotlarida ish yuritish, siyosiy-ijtimoiy.

Til – ijtimoiy hodisa ekanligi ma'lum va buning tabiat qonunlariga aloqasi yo'q. Tilni rivojlantirish ham, barbod qilish ham insonning qo'lida.

Odamzodga yo'qdan bunyod etish buyurilmagan, yo'qdan bor qilolmaydi. Lekin borini rivojlantirish, boridan o'ziga qulayini, mukammalrog'ini barpo etish uchun aql berilgan. Shu bilan birga, tabiat boyliklarini yo'qotgan, yo'q qilgan insonning o'zi. O'zini anglagan, kelajagini o'ylagan millat borki, o'z tilini, qadriyatini, madaniyatini, ma'naviyatini asrash uchun kurashgan, kurashadi – boyliklarini asragan millatning kelajagi bor. O'zbek tili, uning qudrati, shukuhini kimgadir isbotlash uchun birgina shu tilda ijob qilgan, o'zbek millatining buyuk namoyandalari sharafiga 36 davlat, 74 ta davlatda ular sharafiga o'rnatilgan yorgorliklarda ham bilsa bo'ladi. Ajdodlarimiz tomonidan tilimiz boyligi bo'yicha qanchadan qancha bitiklar bitilgan bo'lsa, mamlakat rahbarlari tomonidan Davlat tili maqomini mustahkamlash borasida tinimsiz qarorlar, farmonlar, qonunlar qabul qilingan. Yaqin 4 yil davomida qabul qilingan millatning iqtisodi, siyosati, huquqi hamda ma'naviyati borasidagi hujjatlar o'zining tarixiyligi bilan ahamiyatli. Shu borada yaqinda qabul qilinishi kutilayotgan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 42-moddasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi, avvalo tilimizni yana-da hayotiylikini mustahkamlaydi hamda qonuniy zahirini ta'minlaydi.

42-modda ikkinchi qism bilan to'ldirilmoqda, ya'ni ushbu moddaga: "Davlat organlari va tashkilotlarida ish yuritishda davlat tili haqidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etmaslik, mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining ikki barobaridan besh borobarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi" degan to'ldirish kiritilmoqda. Asosli to'ldirish, avvalroq kiritilishi lozim bo'lgan to'ldirish hamda bu ikkinchi qism ish yuritish hujjatlarimizni anchayin tartibga soladi¹. Ammo, Qonun qabul qilinishi boshqa, uni hayotga tadbiiq etilishi boshqa, unga amal

¹ Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish. – Toshkent, 2000.





qilish va ijrosini ta'minlash boshqa narsa. Avvalambor, qonun qabul qilinishi jarayoni bilan birgalikda idora, korxonalar, tashkilotlar hamda muassasalar, hokimiyat tizimlarida "Davlat tilida ish yuritish" masalalarini ham mustahkamlashimiz zarurdek.

Buning uchun, avvalo, barcha ta'lim muassasalari bitiruv sinflari, guruhlari, kurslari uchun alohida "Davlat tilida ish yuritish" maxsus kurslari ta'limini yo'lga qo'yish lozim. Bugungi kunda ushbu kurslarning dars mavzulari til va adabiyot fanlari mavzulariga qo'shib yuborilgan. Bu mavzu bolalarimizga to'liq yoritilib berilmagan; O'quv dargohlari bitiruvchilari, vazirlik, korxonalar, tashkilotlar, hokimiyatlar uchun ilmiy asoslangan yagona "Davlat tilida ish yuritish" qomusiy qo'llanmasini chop etilishi lozim. Deylik, ish yuritish hujjatlari qanday yozilishini bog'chada, maktabda, kollejda, akademik litseyda, oliy o'quv yurtida hamda ishxonalarda bir xil ekanligini yoshlarimiz bilsin, bu boradagi ishlarimiz tizimli bo'lishi lozim. Bugungi kunda turli mualliflar hamda turli nashriyot va turli davrlarda chop etilgan "Davlat tilida ish yuritish" qo'llanmalarida hujjatlar ham turli shakllarda yuritilishi yozilgan va chalkashlik ko'p. Shuningdek, ish yuritishda Davlat tiliga amal qilmagan, uni qo'pol tarzda bo'zgan korxonalar rahbari bilan birgalikda o'sha hujjatlarni tayyorlagan xodimga ham intizomiy chora ko'rilishi lozim. Har bir tashkilotdagi barcha ish yuritish hujjatlari, tashqi e'lonlar, reklamalar, xizmat guvohnomalarida yozuvlar asosan, Davlat tilida bitilishi kerak. Bu borada tizimli ishlar amalga oshirilyapti, albatta.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasiga muvofiq, O'zbekistonda davlat tili o'zbek tilidir. Shuningdek, 9-moddasiga ko'ra davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish davlat tilida yuritiladi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinadi. Qonunning 10-moddasiga ko'ra esa korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish davlat tilida, ishlovchilarning ko'pchiligi o'zbek tilini bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Shu bilan birga 42-modda ham umumxalq muhokamasiga qo'yildi. Xalqimizning xohish-irodasi birinchi o'rinda. Xalqning xalq, millat sifatida to'la shakllanishi hamda o'zligini rivojlantirish yo'lida uning tilini ish yuritish hujjatlaridagi rolini oshirish yo'lida qilingan har bir to'g'ri qadam esa tahsinga loyiqdir². Ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarning o'zbek tilini milliy ma'naviy qadriyat sifatida puxta egallashi, o'z fikrini yozma shaklda to'g'ri ifodalay olishi, nutqiy savodxonlikka erishish, hujjat matnlarini tuzish ko'nikmalarini shakllantiriladi. Jumladan, akademik litseylarda «Davlat tilida ish yuritish» darslari joriy etildi.

Dunyoga kelgan har bir bola haqiqiy inson bo'lib yetishishi uchun juda ko'p narsalarni bilishi kerak. U o'ziga kerakli bilimni ko'rib, eshitib va o'qib o'rganadi. Eshitib, o'qib o'rganish til vositasida amalga oshadi va uning imkoniyati cheksizdir. Agar til bo'lmay, har bir kishining tirikligi uning o'z tajribasiga asoslangan bo'lsa edi, inson shu kungacha hayvon qanday yashasa, shunday yashagan va bugungi moddiy-ma'naviy taraqqiyotga erishmagan bo'lardi.

Tilning birligi, ma'rifiy ahamiyati shundan iboratki, til tufayli jamiyat a'zolarining har birida hosil bo'lgan bilim ommalashib, uning ko'pchilik tomonidan rivojlantirilishiga imkon tug'iladi. Undan tashqari, til tufayli bilim avloddan-avlodga og'zaki va yozma tarzda qoldiriladi, natijada yangi avlod o'tgan avlodning ishini yangidan boshlamasdan, uni davom ettiradi.

² Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish. – Toshkent, 2015.





Til ilm olishda zamon va makon g'ovini o'rtadan ko'taradi. U tufayli eng qadimgi ma'lumotlarga ega bo'lamiz va hatto kelgusiga oid ma'lumotlarni ham olamiz. Til tufayli sezgi a'zolari bilan bilib bo'lmaydigan narsalarni ham o'rganamiz. Ko'rinishi, shakli bir narsalarning aksi ongimizga o'rnatilishi mumkin, lekin shaklsiz narsalarni biz faqat so'z shaklida o'zlashtiramiz.

Xuddi shuningdek, mavjudotning ko'rinmas ichki jihatlarini ham so'z shaklida o'zlashtiramiz va til vositasi bilan o'zgaralarga tushuntiramiz. Tilni o'rganish va o'rgatishni osonlashtiradigan yana bir jihati shundaki, umumlashtirish xususiyatiga ega³.

So'z yordamida biz mavjudotni o'rganib, umumiy tushunchalar hosil qilamiz va bu tushunchalar mavjudotning umumiy xossalarni o'rganishga, hatto ularning haqiqatini idrok etishga imkoniyat tug'diradi.

Tegishli matnni hujjat turiga va uning zaruriy qismlari mazmuniga mos tarzda mustaqil ravishda tuza olish, jo'natilgan hujjatga tashkilot munosabatini aniq ifodalagan holda to'g'ri javob yozish, taklif yoki e'tiroz bildirish, o'z fikrini dalillar bilan asoslash, xulosalash, umumlashtirish va bunda kirish so'zlardan, iqtibos, ko'chirma gaplardan o'rinli foydalana bilish ko'nikmalarini o'stirishga oid uslubiy materiallarni talabga qiziqarli tarzda yetkazish taqozo etiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tilga munosabat faqat o'zbek tilida gapirish bilangina yuzaga chiqmaydi. Har bir fuqaro o'z vatanparvarlik tuyg'usining natijasi o'laroq tilga hurmat va e'htirom bilan munosabatda bo'lishi, har bir sath birliklarian ehtiyotkorlik bilan foydalanishi lozim. Tilimiz bizning zimmamizdagi meros va uni avlodlarga bus-butun yetkazayli, aziz vatandoshlar!

Adabiyotlar

1. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish. – Toshkent, 2000.
2. Mahmudov N. va bosh. Ish yuritish asoslari. – Toshkent: O'zME davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
3. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish. – Toshkent, 2015.
4. To'xliyev N. Ish yuritish. – Toshkent, 2017.
5. Mahmudov N. va bosh. Ish yuritish asoslari. – Toshkent: O'zME davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
6. Саидов А.Х. Сравнительное правоведение. - Т.: 1999.
7. Butler W.E. Civil Code of Republic of Uzbekistan. - L.: 1999.
8. Uzbekistan Legal Texts: The Foundation of Civil Accord and a Market Economy / Ed. Butler W.E. - L.: 1999.
9. Батлер У.Э. Узбекское законодательство. - Т.: 1999.

³ To'xliyev N. Ish yuritish. – Toshkent, 2017.

